

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel

Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi – 2367,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Bozor xizmatlari o'sish surati – 105,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 785,1 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlanishiga imkon bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2367,8 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari va shaxsiy xizmatlarda kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (33,9 %), transport xizmatlari (24,1 %), moliyaviy xizmatlar (12,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,1 %) tashkil qildi.

Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.


Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarining tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik sohasidagi xizmatlar (151,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (123,7 %), moliyaviy xizmatlar (117,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,1 %), ijara xizmatlari (110,3 %) da kuzatildi.


**2018 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Andijon viloyat	2367,8	105,4
<i>shaharlar:</i>		
Andijon	1056,2	108,3
Xonobod	31,5	101,4
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	135,2	102,9
Asaka	159,6	103,3
Baliqchi	111,7	101,9
Bo'z	27,1	101,9
Buloqboshi	68,4	101,7
Jalaquduq	87,5	102,2
Izboskan	108,8	101,6
Ulug'nor	22,4	102,4
Marxamat	79,5	101,7
Oltinko'l	82,3	102,5
Paxtaobod	87,5	101,1
Xo'jaobod	54,8	102,3
Shaxrihon	148,9	102,3
Qo'rg'ontepa	106,3	101,8

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Andijon shahri (1056,2 mlrd.so'm), Asaka (159,6 mlrd.so'm), Shaxrihon (148,9 mlrd.so'm), Andijon (135,2 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Ulug'nor (22,4 mlrd.so'm), Bo'z (27,1 mlrd.so'm), tumanlari va Xonobod (31,5 mlrd.so'm) shahrida kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar-aprel oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Andijon shahri (44,6 %), Asaka 6,8 %), Shaxrihon (6,3 %), Andijon (5,7 %) tumanlari egallaydi.

Viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'lim

Ma'sul: A.Usmonov

Tel: 71(230-82-64)